Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy asoslari	1051
Yarmatov Sharofiddin Choriyevich	
Innovatsion masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari	1054
Tursunov Faridun Mustafoevich	
Implementation of the ESG strategy in the hotel industry of Uzbekistan	1059
Khusenova Mekhrangiz Gayratovna	
Проектирование инновационной деятельности хозяйствующих субъектов в условиях зеленой экономики	1064
Рузиева Мафтуна Юсуфовна, Мактимова Зарафшон Оллоёровна	
Effective use of marketing analytics in green advertising activities of grape growing enterprises	1070
Usmonova Diyora Mahmud kizi	
O'zbekistonda soliq siyosati va xorij soliq siyosatini o'rganib chiqish	1077
Karimova Gulbahor Normurodovna	
Tijorat banklarining investitsion kreditlardagi garov ta'minotini takomillashtirish mexanizmlari	1081
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
Digital transformation and the impact of modern technologies on agricultural management in Uzbekistan	1085
Asamov Ravshan Bakhodirovich	
"O'zmetkombinat" Ajda marketing faoliyatini takomillashtirish yo'llari	1091
Musayeva Shoira Azimovna	
Подходы к государственной поддержке сельскохозяйственных предприятий с учетом принципов инновационного управления	1096
Шаниязова Замира, Шнибаев Ислам	
Mamlakatda xalqaro turizmni samarali rivojlantirishda turizm siyosatini tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlari	1101
Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich	
Raqamli moliya va to'lov tizimlari	1105
Maqsud Rustamov, Nurijahon Valiqulova	
Iqtisodiy tahlilda ishlab chiqarish hajmini prognozlash masalalari	1110
Qlichev Baxtiyor Pardayevich	
Kichik biznesning mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri: Toshkent viloyati tajribasi	1116
Ajamilova Nigora Asametdinovna	
To'qimachilik korxonalarida xomashyo ta'minoti tizimini boshqarish samaradorligini oshirish	1121
Umarxodjayeva Arafatxon Muzaffar qizi	
Kichik biznes korxonalarida iqtisodiy xavfsizlik masalalarini boshqarish masalalari	1126
Jo'raqulova Muhlisa Jahongir qizi	
Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini soliq nazorati mexanizmi asosida tartibga solish masalalari	1131
Bozorov Anvar Omanovich	
Tadbirkorlik subyektlarining eksport imkoniyatlarini oshirish masalalari	1139
Umarova Munira Muxitdinovna	



O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmining holati	1143
Naimov Saidjon Yusup o'g'li	
Surxondaryo viloyatida dorivor o'simliklarni yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash.....	1148
Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashning dolzarb masalalari.....	1155
Axunova Ma'rifat Xakimovna	
Oliy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi	1159
Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda ta'lim va malaka oshirishning roli.....	1166
Madalievna Nodira Miradilovna	
Davlat korxonalari moliyaviy samaradorligining amaldagi holatini kompleks taqqoslama tahlili	1169
Qarshiyev Nodirbek Olim o'g'li	
Xalqaro mehnat migratsiyasi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar: samaradorlikni solishtirish	1174
Sultanov Anvar Abdullaevich	
O'zbekiston soliq tizimida hududlararo soliq salohiyatini boshqarish	1180
Aipova Iroda Ikramovna	
Tijorat banklarida komplaens auditni tashkil etish va o'tkazishning uslubiy asoslari.....	1184
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
Scientific approach to the formation of a sustainable development strategy for industrial enterprises in the digital economy.....	1190
Maxsudov Muzaffar Ikromjon ugli	
O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiyotdagi o'rni.....	1194
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini statistik va ekonometrik tahlil qilish (Andijon viloyati misolida).....	1206
Ikromov Axmadjon Shavkat o'g'li	
Перспективы инвесторов в осуществлении инвестиционного процесса	1212
Муртазаев Ардашер Зафар угли	
Transport korxonalarida ishchi xodimlarni barqaror ish o'rinlari bilan ta'minlash boshqaruvini takomillashtirish	1216
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
O'zbekiston Respublikasi yengil sanoat tashkilotlarida investitsiya loyihalarni ishlab chiqish va samaradorligini oshirish.....	1221
Xurramova Madina Mansur qizi	
Fuzzy integrals in economics.....	1228
Aymuratov Islam Kamalatdinovich	
O'zbekistonda ipoteka kreditlari bozorining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari	1233
Abdullayeva Aziza Murot qizi	
Совершенствование денежно-кредитной политики центрального банка в условиях цифровой экономики.....	1238
Бердиназаров Зафар Улашович, Исаев Атабек Джурабаевич	
The role of digital assets in international finance and their impact on the global economy	1248
Juraeva Ra'no Abdullaevna, Murodaliyev Shahroz Obidjonovich	
Diversification of financial resources in commercial banks and their innovative management methods in digital transformation	1255
Xodjayeva Jeyrona Ravshonbek qizi	
O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili	1262
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini boshqarish va daromadligini oshirish masalalari	1268
Saxibjonov Muzaffar Salijanovich	
What is the economic impact of Uzbekistan's integration into international financial institutions.....	1283
Rakhmonova Dildora Ergash Qizi	



Kredit portfelini tahlil qilish asosida tijorat banklari faoliyatini optimallashtirish yo'llari	1289
Jo'rayev Eldor Berdibekovich	
Agrosanoat klasterlarida xarajatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobga olishni rivojlantirish	1295
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini takomillashtirish	1300
Xonimqulov Islom Ergash o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini samarali tashkil etishda moliyaviy mablag'lardan foydalanish amaliyoti tahlili	1305
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
O'zbekistonda inflatsion targetlash orqali milliy valyuta barqarorligi ta'minlashning ahamiyati	1308
Shamansurova Zilola Abduvahitovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimiz bank tizimining samaradorli ko'rsatkichlari	1314
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasining o'rni	1321
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Bozorov Jobir Sirojiddin o'g'li	
Ovqatlanish xizmatlarida xizmat ko'rsatish madaniyati va iste'molchi qoniqishining o'zaro bog'liqligi	1325
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotning muammolari	1329
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Structural features of digital neighbourhood in the context of digital economy	1333
Gulsara Ostonaikulova	
O'zbekiston davlat va mahalliy budjet tizimining zamonaviy holati va uni isloh qilish yo'nalishlari	1340
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
Barqaror turizm uchun ekologik toza transport tizimlarining ahamiyati	1344
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Turizm xizmatlarini ko'rsatishda noturar joylardan foydalanish: ijara munosabatlarining huquqiy tahlili	1349
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga xos xavf-xatarlar dinamikasining ekonometrik tahlili	1354
Qodirov Ural Safar o'g'li	
Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishning samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi	1359
Babayev Shavkat Bayramovich	
Влияние макроэкономической стабильности на обеспечение благосостояния населения Узбекистана	1364
Аскарова М.Т	
Tadbirkorlikda raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida dunyo iqtisodiyotida sodir bo'lgan o'zgarishlar	1369
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Sug'urta tashkilotlarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda andarrayting xizmatidan foydalanish	1373
D.E.Qarshiev	
Mintaqa hunarmandchilik mahsulotlarini rivojlantirish hamda brendlarini shakllanishga ta'sir etuvchi omillarning tizimi tahlili	1378
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
Xususiy oliy ta'lim tashkilotlarini soliqqa tortish masalalari	1381
Yakubova Nodira Olim qizi	
Investision mulk hisobini xalqaro standartlar asosida transformasiya qilish	1386
Muzrapova Shahnoza Saydullaevna	



INVESTISION MULK HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TRANSFORMASIYA QILISH

Muzrapova Shahnoza Saydullaevna

“Buxgalteriya hisobi va statistika”

kafedrası o'qituvchisi

shahnozamuzrapova1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada investision mulk hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan IAS 40 – “Investision mulk” standarti asosida yuritishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil etiladi. O'zbekiston buxgalteriya tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Shuningdek, transformasiya jarayonida adolatli qiymat asosidagi yondashuvning moliyaviy hisobot sifati, shaffofligi va investorlar uchun axborotning foydaliligiga ta'siri baholangan. Jahon amaliyoti bilan qiyosiy tahlil asosida xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Investision mulk, IAS 40, xalqaro standartlar, transformasiya, adolatli qiymat, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobi, raqamli yondashuv, aktivlar baholash.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of accounting for investment property based on international financial reporting standards, in particular IAS 40 – “Investment Property”. The need to adapt the accounting system of Uzbekistan to international standards, existing problems and ways to overcome them are considered on a scientific basis. Also, the impact of the fair value approach on the quality of financial reporting, transparency and usefulness of information for investors during the transformation process is assessed. Conclusions and proposals are developed based on a comparative analysis with world practice.

Key words: Investment property, IAS 40, international standards, transformation, fair value, financial reporting, accounting, digital approach, asset valuation.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты учета инвестиционной недвижимости на основе международных стандартов финансовой отчетности, в частности МСФО (IAS) 40 – «Инвестиционная недвижимость». На научной основе рассматривается необходимость адаптации системы бухгалтерского учета Узбекистана к международным стандартам, существующие проблемы и пути их преодоления. Также оценивается влияние подхода по справедливой стоимости на качество финансовой отчетности, прозрачность и полезность информации для инвесторов в процессе трансформации. Выводы и предложения разрабатываются на основе сравнительного анализа с мировой практикой.

Ключевые слова: Инвестиционная недвижимость, МСФО (IAS) 40, международные стандарты, трансформация, справедливая стоимость, финансовая отчетность, учет, цифровой подход, оценка активов.

KIRISH

Aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha tayyorlangan moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga transformasiya qilish jarayonida jamiyatda mavjud asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, ayrim hollarda tovar moddiy zahiralari MHXS talablari bo'yicha investision mulk sifatida tan olinishi mumkinligi tekshiriladi va zarur transformasiya yozuvlari qilinadi. Ma'lumki moliyaviy hisobotni MHXS talablari bo'yicha tayyorlashning texnik masalalari bo'yicha hech qanday qoidalar yo'q. Shundan kelib chiqib, MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni muhim.

Amaliyotda BHMS asosida tayyorlangan hisobotlarni MHXSga muvofiq tuzishning ikki xil usulidan foydalaniladi: parallel hisob usuli va transformasiya qilish usuli.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

B.Epstein va hamkasblari[2] tomonidan yozilgan asarda investision mulkni IFRS, ayniqsa IAS 40 standarti asosida hisobga olish qoidalarini keng tahlil qiladilar. Ular mulk-mulkning baholash usullari — adolatli qiymat va dastlabki qiymat asosida tanlash mezonlari, baholashdagi subyektivlik va audit jarayoniga ta'siri haqida fikr yuritadilar. Shuningdek, transformasiya jarayonida yuzaga keladigan amaliy muammolar va ularning echimlari muhim tahlil qilingan.



I.Karimov[3] o'z tadqiqotida O'zbekiston buxgalteriya tizimida investision mulkning xalqaro hisobga olish standartlariga muvofiqlashtirilishini zarurat sifatida asoslab beradi. U transformasiya jarayonida aktivning tasnifi, amortizatsiya siyosati va aktivlarning baholanishi kabi masalalarni asosiy muammolar sifatida ko'rsatadi. Muallifning fikricha, IAS 40 ni to'laqonli tatbiq qilish investorlarga moliyaviy axborotning aniq va solishtiriladigan shaklini taqdim etadi.

M.Barth va hamkasblari[4] maqolasida xalqaro buxgalteriya standartlari, jumladan IAS 40, moliyaviy axborot sifati va shaffofligiga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarga asoslangan investision mulk hisobi investorlarga bozor qiymatlari va risklar haqida ishonchli axborot beradi. Mualliflar transformasiya natijasida kompaniya qiymati va aktivlar samaradorligining aniqroq ko'rsatilishini ta'kidlaydilar.

D.Toshpulatova[5] maqolasida O'zbekistonda investision mulk hisobini IAS 40 asosida yuritishning afzalliklari va mavjud to'siqlari o'rganilgan. Muallif xalqaro standartlarga mos keluvchi buxgalteriya siyosatini shakllantirish, xodimlarni tayyorlash va baholovchilar faoliyatini uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, adolatli qiymat asosidagi yondashuvning moliyaviy hisobotlarda qanday ahamiyat kasb etishini misollar asosida ko'rsatadi.

Y.Biondi va To.Suzuki[6] ilmiy ishida xalqaro buxgalteriya standartlarining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini Evropa va Osiyo mamlakatlari misolida tahlil qilgan. Ular investision mulk hisobi misolida, milliy amaliyotdan xalqaro standartlarga o'tish jarayonida tashkilotlarning moliyaviy barqarorligi, aktivlar bahosi va auditorlik yondashuvlariga ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur maqola IAS 40 standarti doirasidagi transformasiyaning makroiqtisodiy darajadagi ahamiyatini ochib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Parallel hisob va transformasiya qilish usullari MHXSga muvofiq hisobotga o'tish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Buxgalteriya hisobining milliy standartlardan MHXSga o'tish uchun jamiyatlarda parallel hisob va transformasiya metodlarini qo'llashadi, bu esa ularga moliyaviy axborotni yangi standartlarga moslashtirishga imkon beradi. Parallel hisoblash, ma'muriy hisobotlarni ikki to'liq tizimda – BHMS va MHXSga asoslangan tarzda to'g'ri kelishtirishni ta'minlaydi, transformasiya qilish usullari esa mavjud hisobotlarni MHXSga moslashtirish va qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Bu jarayon, ya'ni solishtirma tahlilni amalga oshirish va har ikki tizim orasidagi farqlarni aniqlash 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Parallel hisob va transformasiya va usullari yordamida MHXS bo'yicha hisobotga o'tkazish usullari farqli jihatlari¹.

Solishtirish sohasi	Milliy hisobotni MHXS shakliga o'tkazish usullari	
	Parallel hisob	Трансформация қилиш
Usul tarkibi	BHMS va MHXS prinsiplari va talabi asosida parallel (ikki marta) hisob yuritish	O'tgan davr hisobotlariga tuzatish kiritish
MHXS bo'yicha axborot tayyorlashning davriyligi va tezkorligi.	MHXS bilan mos joriy axborotni tezkorlik bilan va doimiy asosda taqdim qiladi	MHXSga mos tuzilgan moliyaviy hisobotlar davriy, aniq bir sanaga uni tuzishga extiyoj bo'lganda taqdim qilinadi
MHXS bo'yicha axborot tayyorlashning narxi	Sezilarli qo'shimcha moliyaviy xarajatlar	Nisbatan kam moliyaviy xarajatlar
BHMS va MHXS asosida axborot tayyorlashning ketma-ketligi	MHXSga mos moliyaviy hisobotni BHMS asosidagi hisobot bilan bir vaqtda taqdim qilinadi	MHXSga mos moliyaviy hisobotni faqatgina BHMS asosida hisobot tayyorlagandan so'ng taqdim qilish mumkin
Vaqt sarfi	Nisbatan kam	Uzoq vaqt talab qiladi
Taqdim qilinadigan axborotning aniqligi	MHXSga muvofiq yanada aniq axborotni ifodalaydi	MHXSga muvofiq kamroq aniq moliyaviy axborotni ifodalaydi

1 Муаллиф томонидан тузилган



Yuqoridagi jadvalda ma'lumotlaridan kelib chiqib aksiyadorlik jamiyatlari uchun transformasiya usuli qulayroq: bugungi kunda parallel usul orqali buxgalteriya hisobinitashkil qilishni aytmaganda ham, parallel hisob yurituvchi yoki MHXS asosida hisob yurituvchi jamiyatlar uchun alohida elektron dasturlar mavjud emas.

«Uzbek Leasing International A.O.» AJ milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarda xalqaro standartlarga transformasiya qilish orqali «Investision mulk»ni alohida hisobga olish jarayoni amalga oshiriladi.

Jamiyatning 2019-2023 yillar davomida buxgalteriya milliy standartlari asosida tayyorlangan hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga transformasiya jarayoni tahlil qilindi. 2019 yilda jamiyat balansida uzoq muddatlari aktivlar tarkibidagi asosiy vositalarning jami qoldiq qiymati 18 224 036 ming so'mni tashkil qilgan. Jamiyat ushbu asosiy vositalardan ma'muriy va ijara maqsadida foydalanib kelgan. Lekin ijara sifatida foydalanilgan binoni investision mulk sifatida aks ettirmagan. Jamiyatning MHXS asosida tayyorlangan hisob siyosatida asosiy vositalar va investision mulklar boshlang'ich qiymat modeli bo'yicha hisobga olinadi. Demak, ushbu aktivlar uchun eskirish uning foydali qiymatiga mutanosib hisoblanib kelingan. Ijara sifatida foydalanishga berilgan binoni alohida identifikatsiya qilishni imkoniyati bor va shuning natijasida transformasiya jarayonida investision mulk alohida ajratib olinadi va "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"da asosiy vositalardan boshqa satrilarda aks ettirilgan. Asosiy vositalar tarkibidan investision mulkka o'tkazishda agar boshlang'ich qiymat modeli tanlangan bo'lsa, balans qiymati bo'yicha o'tkaziladi. Quyida tuzatuvchi buxgalteriya o'tkazmasi beramiz:

Dt Investision mulk 3 648 807

Kt Asosiy vositalar 3 648 807

Xuddi shunday, 2020 yilda jamiyat tomonidan bino ijara maqsadida foydalanuvchilarga berilgan.

Tuzatuvchi buxgalteriya o'tkazmasi:

Dt Investision mulk 5 971 582

Kt Asosiy vositalar 5 971 582

Jamiyat 2021 yilda kelgusi foydalanish maqsadi hozir noaniq bo'lgan er maydonini xarid qildi. BHXS 40 ga asosan "agar tashkilot erdan egasi foydalanadigan ko'chmas mulk sifatida yoki odatdagi faoliyati doirasida qisqa muddatda sotish uchun foydalanishi belgilanmagan bo'lsa, er kapital qiymatining oshishi maqsadida tutib turilgan deb hisoblanadi" va investision mulk sifatida tavsiflanadi. Jamiyatning 2021 yilga mo'ljallangan MHXS asosida tayyorlangan hisob siyosatida er uchun haqqoniy qiymat modeli tanlangan. Er maydoni xarid qilinganda u bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar qiymati bilan 4 438 821 ming so'mni tashkil etgan. Yil yakunida ushbu er maydonining haqqoniy qiymati baholovchilar tomonidan 5 060 256 ming so'm etib baholandi. Er maydoni asosiy vosita tarkibida yuritilib kelgan. Demak BHXS-40 ga asosan er maydoni investision mulk sifatida hisobotlarda aks ettirilishi lozim. Jamiyat o'sha sanadagi investision mulkning balans qiymati bilan uning haqqoniy qiymati orasidagi har qanday farqni 16-son BHXSga muvofiq qayta baholash orqali hisobga oladi.

Tuzatuvchi buxgalteriya o'tkazmalari:

Xarid qilish:

Dt Asosiy vositalar 4 438 821

Kt Asosiy vositalarni xarid qilish 4 438 821

Qayta baholash:

Dt Asosiy vositalar 621 435

Kt Qayta baholash bo'yicha tuzatishlar 621 435

Asosiy vositalar tarkibidan investision mulkra o'tkazishda:

Dt Investision mulk (MHTH) 5 060 256

Kt Asosiy vositalar 5 060 256

Ijaraga berilgan investision mulk:

Dt Investision mulk 7 590 384

Kt Asosiy vositalar 7 590 384

2022 yilda yakunida olingan er maydonining haqqoniy qiymati baholovchilar tomonidan 5 768 692 ming so'm bo'lib, haqqoniy qiymat bo'yicha hisobga olingan va bunda har qanday farq foyda yoki zararda aks ettiriladi.

Bunda tuzatuvchi o'tkazmalar quyidagicha:

Dt Investision mulk 708 436 (5 768 692-5 060 256)

Kt Investision daromad 708 436

Investision mulkni ijaraga berish:

Dt Investision mulk 2 667 805

Kt Asosiy vositalar 2 667 805

2023 yilda yakunida olingan er maydonining haqqoniy qiymati baholovchilar tomonidan 6 403 248 ming so'm etib haqqoniy qiymat bo'yicha baholangan bo'lib, har qanday farq «Foyda yoki zarar hamda boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot»ning "Investision daromad" bo'limida aks ettiriladi



Bunda tuzatuvchi o'tkazmalar quyidagicha:

Investision mulkni hisobdan chiqarish:

Dt Investision mulk 634 559 (6 403 248-5 768 692)

Kt Investision daromad 634 559

Ijaraga berilgan investision mulk:

Dt Investision mulk 135 717

Kt Asosiy vositalar 135 717

Yuqoridagi jurnal o'tkazmalari va hisob kitoblardan so'ng, «Uzbek leasing international A.O» aksiyadorlik jamiyatining 2019-2023 yillar bo'yicha investision mulkni transformasiya qilish usulidan foydalangan holda asosiy vositalar tarkibidan alohida aks ettirish va moliyaviy hisobotning tegishli satrida to'g'ri shakllantirish maqsadga muvofiq (2-jadval).

2- jadval. «Uzbek leasing international A.O» aksiyadorlik jamiyatida investision mulk hisobini BHMSdan MHXSga transformasiya qilish tartibi² (ming so'm).

Ko'rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
BHMS bo'yicha (transforma-siyadan oldin)					
Uzoq muddatli ak-tivlar					
Asosiy vositalar	18 244 036	29 857 909	63 253 198	42 182 484	32 694 824
Tuzatuvchi o'tkazma					
Asosiy vositalar	3 648 807	5 971 582	12 650 640	8 436 497	6 538 965
Investision mulk	3 648 807	5 971 582	12 650 640	8 436 497	6 538 965
MHXS bo'yicha (transforma-siyadan keyin)					
Uzoq muddatli ak-tivlar					
Asosiy vositalar	14 595 229	23 886 327	50 602 558	33 745 987	26 155 859
Investision mulk	3 648 807	5 971 582	12 650 640	8 436 497	6 538 965

Ushbu jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, investision mulk hisobini "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"ning alohida uzoq muddatli aktivlar bo'limida, asosiy vositalar 2023 yilda 26 155 859 ming so'mni, investision mulk esa 6 538 965 ming so'mni tashkil etadi. Buning natijasida aksiyadorlik jamiyatlari buxgalteriya hisobida xalqaro standartlar asosida investision mulk hisobini tashkil qilish hamda moliyaviy hisobotning tegishli satrlarida to'g'ri va ishonchli aks ettirishni ta'minlashga erishiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, investision mulkni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida, ayniqsa IAS 40 ("Investision mulk") talablari bo'yicha hisobga olish — moliyaviy axborotning ishonchiligi, shaffofligi va solishtirish imkoniyatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv aktivlarni adolatli qiymat asosida baholash orqali investorlar, auditorlar va boshqaruv subyektlari uchun real va foydali axborot taqdim etadi. Transformasiya jarayoni, shubhasiz, amaldagi buxgalteriya amaliyotida yangicha yondashuvlarni talab etadi va bu esa milliy standartlarning xalqaro mezonlarga yaqinlashishini ta'minlaydi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

- IAS 40 standarti bo'yicha huquqiy va metodik asoslarni mustahkamlash – investision mulkni adolatli qiymat asosida baholashga oid milliy normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro standartlarga mos holda takomillashtirish.
- Buxgalter va auditorlar malakasini oshirish – investision mulkni xalqaro standartlar asosida hisobga olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlarini joriy etish.
- Baholash faoliyatini xalqaro mezonlar bilan uyg'unlashtirish – adolatli qiymatni aniqlashda mustaqil baholovchilarning ishtirokini kuchaytirish va ular faoliyatini tartibga soluvchi me'yorlarni ishlab chiqish.

² Муаллиф томонидан тузилган.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 24.02.2020 йилдаги ПҚ-4611-сон қарори. <https://lex.uz/docs/4746047>;
2. Epstein, B.J., Nach, R.F., & Bragg, S.M. (2010). IFRS: Interpretation and Application of International Financial Reporting Standards. Wiley.
3. Каримов, И. Р. (2021). “Инвестицион мулк ҳисобини халқаро стандартларга мослаштиришнинг назарий ва амалий асослари”. Иқтисодиёт ва молия, №4.
4. Barth, M.E., Landsman, W.R., & Lang, M.H. (2008). International Accounting Standards and Accounting Quality. Journal of Accounting Research, 46(3), 467–498.
5. Тошпулатова, Д. С. (2020). “Инвестицион мулкларни ҳисобга олишда халқаро стандартларни қўллаш амалиёти”. Бухгалтерия ва аудит, №5.
6. Biondi, Y., & Suzuki, T. (2007). Socio-Economic Impacts of International Accounting Standards: Evidence from Japan and France. Socio-Economic Review, 5(4), 585–611.
7. 40-сонли БХХС “Инвестицион кўчмас мулк” <https://lex.uz/uz/docs/6312360>;
8. Музрапова Ш.С. (2023). Молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлар асосида молиявий ҳисоботларни тузиш тартиби. “Тафаккур манзили” май2022 ISSN, 2180-2160;
9. Хамдамов Б.К., Обидхонов Ҳ.Ҳ. “Ўзбекистон республикасида инвестицион кўчмас мулкларни ҳисобга олиш ва уни МҲХСга мувофиқлаштириш”.
10. Уразов К.Б. Бухгалтерский учет и налогообложение инвестиций. - Т.: Мир экономики и права, 2003. - 6-с.
11. Авлоқулов А.З. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида инвестицион мулк ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш: 08.00.08: Иқтисод фанлари номзоди диссертацияси автореферати. Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси. – Т., 2007. -24-б.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
